

**TALABALARDA MA'NAVIY-AXLOQIY MADANIYATNI
RIVOJLANTIRISHDA JADID PEDAGOGIKASINING AHAMIYATI*****Raxmatova Dilbar Anvar qizi****Profi University Navoiy filiali o'qituvchisi**Navoiy davlat pedagogika universiteti doktoranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadid pedagogikasi vositasida talabalarning ma'naviy-axloqiy madaniyatini rivojlantirish hamda ularda jadid pedagogikasining ahamiyati hamda uning dolzarbligi haqida ma'lumotlar ochib berilgan. Biz uchun jadidchilikning sinovdan o'tgan amaliy tajribasi Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessansni bunyod etishning muhim ma'naviy-nazariy manbasi bo'lib xizmat qiladi. Chunki jadidlarning g'oya va dasturlari, davlatimiz rahbari e'tirof etganidek, Yangi O'zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg'un va hamohangdir.

Kalit so'zlar: Jadid adabiyoti, madaniyat, tarbiya, axloq, pedagogik meros, umuminsoniy sifatlar, barkamol inson

Annotation: This article reveals information about the development of spiritual and moral culture of students with the help of modern pedagogy and the importance of modern pedagogy and its relevance. For us, the tested practical experience of Jadidism serves as an important spiritual and theoretical source for the creation of New Uzbekistan and the Third Renaissance. Because the ideas and programs of the Jadids, as the head of our state admitted, are in every way compatible and in harmony with the strategy of building New Uzbekistan.

Key words: Ancient literature, culture, education, morals, pedagogical heritage, universal human qualities, perfect person

Аннотация: В данной статье раскрываются сведения о развитии духовно-нравственной культуры учащихся с помощью современной педагогики, а также о значении современной педагогики и ее актуальности. Для нас апробированный практический опыт джадидизма служит важным духовно-теоретическим источником создания Нового Узбекистана и Третьего



Возрождения. Потому что идеи и программы джадидов, как признал глава нашего государства, во всех отношениях совместимы и гармонируют со стратегией строительства Нового Узбекистана.

Ключевые слова: *Античная литература, культура, образование, этика, педагогическое наследие, общечеловеческие качества, совершенный человек.*

Kirish: Jadid pedagogik merosi vositasida talabalarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirish dolzarb masaladir. Milliy o'zlikni shakllantiradigan uchlik – o'tmish, bugun va kelajak hamma davrlarda ham zamonning ziyolilari, xalqning kelajagi uchun qayg'uradigan fidoyilarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Ayni kunda ham bu haqiqatni yanada teran anglash, yangi rivojlanish bosqichida boy milliy tajribadan samarali foydalanish masalasiga davlat darajasida katta ahamiyat qaratilmoqda. Avvalo, Renessans pedagogikasi tarixiga qisqa nazar tashlasak. O'zbekiston hududida birinchi Renessans pedagogikasi Sharqda pedagogik fikrlar rivojlanishi uchun katta hissa qo'shgan Muhammad Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniylar nomi bilan boshlanadi. Yevropa va Amerikada XX asrning 50-yillarida paydo bo'lgan insonparvarlik pedagogikasi aslida Sharqdagi ilk Uyg'onish davri pedagogikasining tub mohiyati va negizini tashkil etgan. Ikkinchi Renessans pedagogikasining paydo bo'lishi va taraqqiyoti esa temuriylar saltanati bilan bog'liqdir. Bu davrda yashab ijod qilgan Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburning faoliyati va ilmiy-pedagogik qarashlari tahsinga sazovordir. Mirzo Ulug'bek o'z davrida uchta (Buxoro, Samarqand va G'ijduvonda) madrasa qurdirib, oliy ta'lim tizimini tubdan isloh qilgan. Mirzo Ulug'bek madrasalaridagi ta'lim olish uch bosqichni (anda, aust, a'lo) o'z ichiga olib, diniy va dunyoviy bilimlarni mukammal o'rgatuvchi chinakam ma'nodagi oliy ta'lim muassasasi namunasi bo'lgan. E'tibor qaratilsa, bugun jahonda oliy ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash bosqichlarining (bakalavr, magistr, doktorantura) yorqin namunasi Mirzo Ulug'bek tomonidan ilk bor amalga oshirilganligiga guvoh bo'lish mumkin. Yurtboshimiz ta'kidlab o'tganlaridek, mamlakatimizda "Uchinchi Renessansni yigirmanchi asrda ma'rifatparvar jadid



bobolarimiz amalga oshirishlari mumkin edi. Nega deganda, bu fidoyi va jonkuyar zotlar butun umrlarini milliy uygʻonish gʻoyasiga bagʻishlab, oʻlkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni gʻaflat botqogʻidan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etganlar va shu yoʻlda oʻzlarining aziz jonlarini ham qurbon qildilar. Ular “Dunyoda ilmdan boshqa najot yoʻq va boʻlmagay” degan hadisi sharifni hayotiy eʼtiqod deb bildilar”. Uchinchi Renessansga erishish oʻz navbatida, yangi Renessans pedagogikasini yaratishni talab etadi. Bu esa milliy Uygʻonish pedagogikasi atoqli vakillarining ilmiy-pedagogik, adabiy merosini chuqur oʻrganish hamda innovatsiya va tarixiy tajribani uygʻunlashtirishni taqozo qiladi. Keling siz bilan jadid adabiyoti bilan talabalarda maʼnaviyatni, axloqni, oʻzlikni, adolatni shakllantirishga xizmat qiladigan bir qator jihatlarini koʻrib chiqamiz. Abdulla Qodiriy romanlarini sevib oʻqishining sababi shundaki, ularda milliy tafakkur shuʼlari balqib turadi. Butun bu asarlarni oʻqish davomida oʻquvchining ruhiy olami oʻzgaradi, insoniyatga xos boʻlgan yaxshi fazilatlar bilan uchrashadi, baʼzida esa bu fazilatlarining xira tortganligi uni iztirobga soladi. “Oʻtkan kunlar” romanini oʻqish jarayonida oʻquvchi oʻzbek millatiga xos odob-axloq koʻrinishlarining guvohi boʻladi, muomala madaniyatining turli qirralariga duch keladi, ota va farzand munosabatlaridagi oʻziga xos nozik jihatlarni anglaydi. “Mehrobdan chayon” romanini oʻqish jarayonida oʻquvchi har xil kayfiyatga tushadi: bu dunyoning adolatsizligidan bir xafa boʻlsa, asar qahramoni Anvarning erishgan kamolotidan bir xursand boʻladi, bir mulohaza qiladi oilaviy munosabatlardagi sharqona odob xususida, bir oʻyga toladi davlat boshqaruvidagi adolatsizliklarni oʻylab. [3] Shuningdek, oʻquvchi asarda doʻstga sadoqat, muhabbatda vafo kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatini chiroyli satrlarda, taʼsirchan tasvirlarda koʻra oladi. Oʻz asarlarida oʻzini qiynayotgan muammolarni, qalbini ogʻritayotgan ogʻriqlarni qalamga olishga odatlangan Choʻlponning “Kecha va kunduz” romani ham oʻquvchi maʼnaviyatini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mustamlaka zulmidan ezilayotgan xalqning nochor ahvolini, jamiyat tanazzulini ochiq-oydin yoritib beruvchi ushbu asar bilan tanishar ekan, kitobxon asar voqealari asosida inson qadri naqadar arzon ekanligi, ayniqsa, ayol zotining jamiyatda hech qanday oʻrni



mavjud emasligi, jaholat botqog'iga botgan ota ochko'zligi sabab hali voyaga yetmagan Zebining aybsiz aybdorga aylanishi, hech bir jinoyat qilmagani holda gunohkorga hisoblanishi, aybdor sifatida surgun qilinishi kitobxon qalbini nafratga to'ldiradi, ijtimoiy tengsizlik, davlat boshqaruvidagi adolatsizlik kabi asarning mazmun-mohiyatini tashkil etuvchi voqea-hodisalar tasviri uni o'ylashga majbur qiladi. Abdulla Avloniy tomonidan yaratilgan "Turkiy Guliston yoxud Axloq" asarini o'rganish orqali har bir o'quvchi kitobxon o'zida mavjud sifat-xislatlarni atroflicha mushohada etadi, yaxshini yomondan, oqni qoradan farqlashni o'rganadi. Asarda keltirilgan fikrlar, yaxshi va yomon xulqlar tavsifi, fikrlar isboti sifatida keltirilgan kichik hikoyalar o'quvchilarning kelgusida ma'naviyatli shaxs bo'lib voyaga yetishlarida muhim rol o'ynaydi. Faqat ma'lumotlar o'quvchi shaxsining yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olib taqdim etilgandagina samara beradi [1]

Behbudiyning "Padarkush" asari bugungi kun o'quvchisi uchun jo'n va sodda tuyulgan bu asar orqali o'quvchi o'z farzandining taqdiriga befarq, har narsani faqat pul, boylik bilan o'lchaydigan ota va uning taqdiri, farzandiga to'g'ri tarbiya bermagan, natijada taqdir sinovlari oldida nochor qolgan onaning holati o'quvchini mulohazaga undaydi [2]

Xulosa: Bugungi kunda adabiyot ta'limining yetakchi xususiyatlarini o'quvchi ma'naviyatini yuksaltirish, ularning mustaqil fikrlash salohiyatini rivojlantirish, adabiyotga mehrini, hurmatini oshirish, badiiy asarlar vositasida o'quvchilarni o'zga odamlar qalbini anglashga o'rgatish, o'zgalar dardini anglashga yo'llash kabilar tashkil etmoqda. Ta'lim-tarbiya olish, ilm vositasida komillikka erishish istagida bo'lgan har bir o'quvchi uchun jadid adabiyoti muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sharofuddinov O. Cho'lponni anglash. Toshkent 1998 [1]
2. Normatov U. O'tkan kunlar hayrati. Kaimov N XX asr adabiyoti manzaralari Toshkent O'zbekiston, 2008 [2]
3. Qirg'izova O. Jadid adabiyotining bugungi kunda tutgan o'rni. Namangan 2020 [3]